

Ta’lim jarayonida topishmoq, she’r va maqollardan foydalanish shakllari

Madrimova Madinabonu Otabek qizi

Urganch davlat universiteti

Talaba

Geografiya insoniyatning beshigi hisoblanish yer sayyorasi va uning tasvirini o’rganuvchi eng qadimiy fandır, murg’ak qalblarni o’zi yashab turgan zamin hamda uning ajoyib va g’aroyib tabiat sirlaridan ogoh etgani bois uni sevib o’qimaydigan o’quvchi bo’lmas kerak.

Kishilk jamiyati vujudga kelibdiki, geografiya fani mavjuddir. chunki qadimgi sayyoralarning o’ziga qit’alarga qiziqib yo’l olishlari, undan ham ilgariyoq yo’llarini aniqlab olish uchun tosh va yog’ochlarga shartli ko’rsatkich belgilarini ishlata olishga harakat qilishlari, yerning shakli va kattaligi haqidagi gipotezalar fikrimiz isbotidir.

Demak, geografiya fani avvalo extiyoj tufayli yuzaga keladi. U vujudga kelgan kundan bugungi yuksak texnikalashgan davr tubdan farq qiladi. Bashariatning qo’hna tarixga nazar tashlasak. Geografiya fani insoniyatga nima berdi? geografiya fani va uning jasur jonkuyar sayyohlar bo’lmaganida balki Amerika, Afrika, Avstraliya qit’alari tog’larning balandligi, cho’qqilari okean osti cho’kmalar, noyob yer osti va ustki boyliklari, o’zga qi’ta jonzotlari, tabiat mo’jizalarini va bir qancha noyob durdonalar noma’lumligicha qolgan bo’lardi. Shuningdek, butun sayyora aholisi, uning ishlab chiqarish jarayonlari, ijtimoiy iqtisodiy ahvoli hamda yer sharinng ekologik vaziyatlarini o’rganib bo’lmasdi. Bugungi kun geografiyasi ham ushbu masalalarga asoslanib, ravnaq topmoqda. Sayyoraning barcha huquqlari o’rganilmoqda. Shu bois geografiya fani o’rganilishiga o’rta va oliy maktab dasturlarida alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu fanni o’quvchilarga o’rgatish davomida albatta boshqa fan asoslariga ham tayanishga to’g’ri keladi. Bu esa uning mukammalligini ta’minlaydi va fan obro’sini oshiradi. Masalan, joylarning uzoqligi kengligi, balandlik va chuqurliklarini o’lchashda ayniqsa masshtab bilan ish olib borishda matematika, yer sayyorasining o’zga sayyoralar bilan taqqoslashda astronomiya faniga bog’lanish, jismlarni fizikaviy va kimyoviy xossalarini aniqlashda ushbu tabiiy fanlarga yer shari o’simlik va hayvonlarni chuqurroq tahlil etishga qaratilgan masalalarda biologik va geografik lug’at va atamalar bilan ishlash

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

jarayonida, xorijiy tillar hamda fikrlari jozibali va ohangdor ifoda etish dars saviyasini oshiradi[7,8].

Tabiiy geografiyaning umumiy masalalariga bag`ishlangan boshlang`ich qismi o`quvchilarning yoshiga nisbatan biroz murakkabroq tuzilgan bo`lib, unda geografiyaning boshqa darslikdagi kabi o`quvchilar bilan hayolan sayohat qilish imkoniyatlari yo`q. O`rta umumiy ta`lim maktablarining 7- sinflariga mo`ljalangan ushbu darslikning umumiy geografik masalalarga tayangan qismini o`quvchilarga yetkazishda, o`quvchi juda ko`plab uslublar va usullardan texnika vositalar, rasm diogramma va jaridalar hamda turli geografik o`yinlardan foydalanishga to`g`ri keladi. Ta`limda badiiy adabiyotga tayanib hikoya, she`r va ertak va asarlarning mavzuiga mos qisimlaridan parchalar o`qib berish maqsadga muvofiq. O`qituvchi ushbu qo`llanmalarni har bir darsi uchun ajratib olib darsdagi mavzular bo`yicha to`plam xoliga keltirib olsa, bu uning eng katta yutug`i bo`ladi. Bu manbaa o`qituvchiga darsni uslubiy jihatdan mukammal, serqirra eng asosiy zamonaviy tashkil etishda tayanch vazifasini bajaradi. Shuningdek, geografik o`yinlar, testlar bilan birga topishmoqlar va she`rlarni geografiya o`qituvchisi, o`z tushunchasi asosida sodda va tushinarli qilib yaratib olsa, ko`zlangan qilib yaratib olsa, ko`zlangan maqsad yanada samaraliroq bo`ladi. Shunday xildagi uslubni she`riy mislollarni sizga taqdim etamiz [5].

Ushbu hukmingizga havola etilayotgan «geografiya darslarining nazmiy usulda tashkil etish»gi asoslangan mavzuni «geografiya madhi» bilan boshlaymiz. Ushbu she`r o`quvchilarga geografiya fanini va uning afzaliklari bebaho hislatlari haqidagi gap ochib, uni asosiy o`rganish obyekti hisoblanmish tabiat va uning ajib sirlari-yu tengi yo`q ijodi haqida tushuncha beradi fani va ona tabiat timsoli yaratish hamda unga mehr uyg`ota olishdan iboratdir.

Geografiya madhi.

Buyuk sayyoh olimlarning kashfiyoti – bu,

Yer qirrasin etuvchi quy-bayoti – bu,

Zamindagi mavjudotlar hur-hayoti – bu,

Sayyoramiz siyrati-geografiya – bu.

Bu demakki, jasoratlar majmuasidir,

Sayyohlarning tasavvuri, tasviri shudir,

qalbinga beruvchi olam-olam ziyo nur,

Tabiatni o`rgatuvchi geografiya – bu.

Barcha olam sirlari jam bo`lgan bunda,

Shoir qalbin zabt etuvchi ilhom ham shunda,
Hayollarni tilsimlagan sehrlar shunda,
Mening ezgu ko‘ngil torim geografiya – bu.
Kurrimizmi ob-havosi sahovatidan,
Yer yuzining go‘zal, nodir tarovatidan,
Turli tuman jonzotlari nabotatidan,
Hikoyalar so‘zlaguvchi geografiya – bu.
Al-Beruniy, Bobur Mirzo, Dono Ulug‘bek,
Magellan, Kolumb hamda frantsis Dreyk
Falsafani yaratgan emishlar buyuk,
Tabiiy fanlar sultoni geografiya – bu.

Geografiya darslarning nazariy asosi o‘quvchilarga yer shari tabiati va aholisining xo‘jalik faoliyati haqidagi tasvir yaratib berishga qaratilgan bo‘lsa, uning ikkinchi yana bir kurrasi o‘quvchilarga sehrga to‘la saxiy, mo‘jizakor hamda maftunkor ona zaminimiz tabiati ijodidan shodlanib, ruhlanish ilhom olish zavqlarni tuyishga undovchi ekologik-estetik tarbiya berish nizomlariga asoslanadi. Biz bu tarbiyani o‘quvchilarni murg‘ak, pok borliqqa shaydo qalblariga geografiya darslariga ilk bor kirib kelgan kunimizdanoq singdirib olishni maqsad qilib olsak o‘z vazifamizni a‘lo darajada uddalay olgan bo‘lamiz. qo‘yidagi «tabiatdan yaralgansan» deb ataluvchi shoir o‘g‘itlari bilan sug‘orilgan satrlar bizga yuqoridagi ezgu istaklarni ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Tabiatdan yaralgansan.
Go‘zal diyor, moviy osmon,
Suv xo‘p zilol, tanga darmon,
Desalar hech qosh chimirma,
Tabiatdan yaralgansan.
Sochingni shamol o‘ynasa,
Xazon kabi undan qochma,
Boshing silab yomg‘ir yog‘sa,
Labing burib pana topma.
Oftob o‘tib qizdirsa bosh,
Yuz o‘girma ayla bardosh,
qalbingdagi qora otash,
tabiatdan yaralgansan.

Tabiatning ajib siri,
Mana shunday tuzilgandir,
Tovus kabi go‘zalliging,
Tabiatdan yaralgandir.

Tabiiy geografiya darslari «geografiya nimani o‘rganadi» degan mavzu bilan boshlanadi. Bu mavzuni o‘qitishda geografiya fani tarixiga nazar tashlash va uni o‘rganish tadqiq etish, xo‘jalikda foydalanish borasida katta ahamiyatli ekanligini batafsil tushintiriladi. Mavzu mavzuni chuqur anglash uchun ko‘plab atamalar bilan ishlarga turi keladi. Mavzu o‘qituvchi tomonidan bayon qilib berilgan, quyidagi she‘rni ijro etib berish uchun tayyorlab quyilgan o‘quvchiga navbat beriladi. She‘r ijro etilayotgan paytda o‘quvchi oldida geografiya kitobining kattalashtirilgan nusxasi turadi.

Geografiya so‘zi.
qadimda Eratosfen,
Atagan fan o‘sha men,
Yunoncha so‘z geo-yer,
Grafo-chi yozaman der.
O‘zbekcha o‘girsak,
Yerning tasviri demak,
Buni barcha o‘quvchi,
Albat bilmog‘i kerak.

Ikki jonim bor mening,
Yer shari shonim mening,
Tabiatdir vujudim,
Sizlar mening bor budim.

Bir tarmog‘im tabiat,
Shaydosi bo‘lsa agar.
Ikkinchi bilim, qoida,
Jam xo‘jalik faoliyat.

Bu she‘r o‘quvchilarga eshittirilib bo‘lingach ulardan she‘rni tahlil qilib berish so‘raladi va dars mustahkamlanadi. She‘rni mazmunini namuna sifatida yoritib beriladi.

Yuqoridagi she‘r orqali o‘quvchi avvalo geografiya faniga va atamasiga kim asos solganini geografiya so‘zini lug‘aviy ma‘nosi qanday ekanligini uning ikki qismdan

iboratligi va bu qismlar o‘z o‘rganish obyektiga ega ekanligi bilan chuqur tanishib oladi. O‘z o‘rnida Eratosfen haqida gap borilayotganda uni nafaqat fanni birinchi nomlanganligi balki xaritaning birinchi bor tuzishga harakat qilganligi haqida bir qator olamshumul geografik tadqiqotlarga to‘xtab o‘tish o‘rinlidir. Masalan: Eratosfenning fan nomlashga asos bo‘lgan tadqiqoti quydagicha edi. Geografiya deb sarlavha boshlagan eng birinchi kitobni bundan 2000 yildan ham ilgariroq Aleksandriyalik olim Eratosfen yozgan edi. Eratosfen tomonidan yozilgan geografiya kitobida yerning shakli va kattaligi o‘sha vaqtda ma‘lum bo‘lgan dengizlar, quruqliklarning taqsimlanishi haqida fikrlar yuritilib to‘liq tasvirlab berilgan. Shundan beri yani Eratosfen kitobi yozilgandan boshlab butun yer yuzasi yoki yer yuzasining biror qismini tasvirlashni geografiya deb aytadigan bo‘ldilar [19].

She‘r o‘qib berilgach, uni tahlil qilib so‘ralib, qisqacha konspekt yozdirib qo‘yilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yer haqidagi geografik bilimlarning rivojlanishi bu mavzuni yoritishda «Buyuk geograflarmiz» nomli she‘ridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu she‘rda imkoningiz bo‘lsa har bir sayyoh portretiga qarab she‘r o‘qing, chunki bu holat darsga jonlilik baxsh etadi.

Dars oxirida uning yodlash uchun uyga topshiring.

Buyuk geograflarmiz

Dunyo xaritasini

Birinchi bor tuzgan kim?

So‘rsalar o‘sha men,

Nomimdur Eratosfen.

Globusni birinchi

Yaratdik biz ikkovlon

Menman nemis Bexaym

Beruniy o‘zbek o‘g‘lon.

Dunyo bo‘ylab eng avval,

Sayyoh u kim bo‘lgan ekan?

Savolingiz etay hal,

Uning nomi Magellan.

Sandiq to‘la javohir izlab

Hindistonni borardim ko‘zlab,

Hayolimni ummon oldimi?

Dilga Amir qoni soldimi?

Orol tomon yuzlanib nogoh,
Xindu dedim aholisin goh,
Sharqiy Hitndiston deb atadim,
Men sayyohlik burchini o‘tadim,
Kolomb nomim mamlakat oldi,
Xatolarim tarixda qoldi.

Shuni ham takidlash lozimki, garchan Amerika qita`cini 15-asrning oxirlarida ispan dengizchisi X. Kolomb o‘z sayohatlari natijasida tadqiq etgan bo‘lsada, undan necha yuz yillar avval vatandoshimiz A. Beruniy o‘z asrlarida yer qirrasining orqa tomonida ham quruqlik mavjud ekanini bashorat qilib o‘tganligi ham o‘z davrning muhim geografiya voqeasi edi. Shu bois yuqoridagi X.Kolomb sayohatlariga bag`ishlov o‘qib berilagach, atoqli shoirimiz A.Oripovning quyidagi misralari bilan hamnafas bo‘lishimiz, fikrlar uzviyligini ta`minlaydi, aniqligini oshiradi.

Amerika sehrli diyor,
Uxlar edi Kolomb ham hali
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash`ali
Kolombda bor alamim mani,
O‘zbekiston vatanim manim.

Darvoqe sizga yuqoridagi tavsiya etgan bitiklarning ikkinchi bandida yerning shakliy modeli globusni yaratgan olimlar A.R.Beruniy hamda M. Behaymlar haqida fikr ilgari surilgan edi. Shu o‘rinda shuni ta`qidlash joizki, o‘quvchilar globusni qaysi ixtirochi dastlab yaratgani haqida o‘ylab ikkilanadilar. Buni bir necha yillik tajribalar tasdiqlanmoqda. Shu bois ham har ikki olimning yashagan davrlari va ixtiro etgan globuslarning aniq tafsilotlari keltirib o‘tilishi fikrlarni yanada oydinlashtiriladi.

X.Kolomb sayohatidan keltirilgan band tahlil qilinayotganda esa dunyo siyosiy xaritasidan Kolumbiya mamlakatini ko‘rsatib o‘tishni unitmang.